

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TILEGENOVA ALTINAY ERNAZAR QIZI

**HOZIRGI QORAQALPOQ LIRIKASIDA TROPLARNING
QO‘LLANILISH XUSUSIYATI**
(Metaforalar, epitetlar, o‘xshatishlar, K.Karimov, J.Izbasqanov,
B.Genjemuratov lirikasi misolida)

10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Tilegenova Altinay Ernazar qizi

Hozirgi qoraqalpoq lirikasida troplarning qo'llanilish xususiyati (Metaforalar, epitetlar, o'xshatishlar. K.Karimov, J.Izbasqanov, B.Genjemuratov lirikasi misolida)..... 3

Тилегенова Алтынай Ерназар кызы

Особенности употребления тропов в современной каракалпакской лирике. (Метафоры, эпитеты, сравнения. На примере лирики К.Каримова, Ж.Избасканова, Б.Генжемуратова)..... 25

Tilegenova Altinay Ernazar qizi

Peculiarities of the usage of tropes in modern Karakalpak lyrics. (Metaphors, epithets, comparisons. Using the example of the lyrics of K.Karimov, J.Izbasqanov, B.Genjemuratov)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TILEGENOVA ALTINAY ERNAZAR QIZI

**HOZIRGI QORAQALPOQ LIRIKASIDA TROPLARNING
QO‘LLANILISH XUSUSIYATI**
(Metaforalar, epitetlar, o‘xshatishlar, K.Karimov, J.Izbasqanov,
B.Genjemuratov lirikasi misolida)

10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4299 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jarimbetov Qurbanbay Qudaynazarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kurambayeva Gulandam Karimbaevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Tleuniyazova Gulmira Bayniyazovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "5" "12" kungi soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (403 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" "11" kuni tarqatildi.
(2025-yil "14" "01" da) No 16 raqamli reestr bayonnomasi).



Q.K.Orazimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
filol.f.d., professor

J.O.Tanirbergenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Z.U.Bekbergenova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Jahon adabiyotshunosligining taraqqiyot bosqichlarida she'riyatga nisbatan muntazam ravishda yangicha talqin va tahlillarga ehtiyoj sezilib kelgan. Zero, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiy merosidan ozuqlangan an'anaviy hamda modernistik – zamonaviy she'riyat muayyan shoirlar ijodiga xos individual xususiyatlar orqali badiiy tafakkurning yangilanish va shakllanishi sabab bo'ladi. Shu ma'noda, adabiy jarayonda yangicha badiiy ifoda va tasvir vositalarining vujudga kelishi, lirik subyekt va obyekt munosabatlariga bo'lgan yondashuv, shakl va mazmun mutanosibligi, she'riy matn yaxlitligini ta'minlashda badiiy ko'chimlarning o'rni va funksiyasi kabi masalalarni davr ilmiga monand ilmiy-nazariy tahlil va tadqiq qilish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib keladi.

Dunyo adabiyotshunosligida she'r strukturasi troplarning o'rni, badiiy-estetik vazifasi eng muhim nazariy muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. Sharq adabiyoti, xususan, turkiy xalqlar adabiy merosi, jahon she'riyati an'analariga xos metaforik tafakkur nuqtayi nazaridan o'rganilganda unda ijodkor uslubi va individual xususiyatlari, shuningdek, shoir shaxsiyati, milliy qadriyatlar mezoni yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni masala yuzasidan troplarning qo'llanish xususiyatlarini badiiy tafakkur tarzi sifatida tadqiq etish poetik mazmun mohiyatini ochishda eng asosiy omil ekanligi tan olingan.

Istiqlol davri qoraqalpoq lirikasi bugungi kun ruhini aks ettirish bilan birga keng kitobxonlar jamoasi madaniy va estetik olamini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. She'riyat va uning poetikasining bir bo'lagi hisoblangan troplar qoraqalpoq shoirlari lirikasida ijodkor ruhiy kechinmasi, inson taqdiri, milliy-ma'naviy qadriyatlar, odam va olam munosabati muammolarini badiiy talqin qilishda shakliy-uslubiy izlanishlarini namoyon qilishning cheksiz imkoniyatini yaratmoqda. Xususan, J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlar she'riyati o'zining g'oyaviy-badiiy, janr va shakliy hamda uslubiy jihatlari bilan zamonaviy qoraqalpoq lirikasini yangi bosqichlarga olib chiqdi. Mazkur shoirlar ijodi ramziy-falsafiy, publitsistik, tabiat mavzusi hamda ularda qo'llanilgan rang-barang badiiy tasvir vositalari jihatidan hamohanglik kasb etsa-da, ularning ijodiy uslublari individual xususiyatlarga egaligi seziladi. Mazkur shoirlarning aksariyat she'rlarida tabiat va inson munosabati, mavjud voqelik, o'tmish – bugun – kelajak masalalari o'zining badiiy ifodasini topadi. Shoirlar badiiy mahorati natijasida bugungi inson qalb tug'yoni, kechinmalarini o'zida aks ettirgan dunyoga yangicha nigoh bilan qaraydigan lirik qahramon obrazi yaratiladi. Zero, Prezidentimiz e'tirof etganidek, "... mumtoz va zamonaviy adabiyotni jahon miqyosida o'rganish va targ'ib qilish, bu ko'p qirrali masalani bugungi dunyo adabiy jamoatchiligida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan bog'liq holda tadqiq etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, oldindagi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega"¹. Shu ma'noda, hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy ko'chimlar

¹ Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi // <https://www.xabar.uz>.

qo'llanilishi masalasini J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlar ijodi misolida o'rganish orqali tasvir vositalarning she'r strukturasiidagi ahamiyati va vazifasi, shoirlarning lirik qahramon yaratish mahorati, badiiy tafakkur tabiati, ijodiy individualligi belgilash yuzasidan nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-6-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, Farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va shu yo'nalishdagi boshqa qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslikda badiiy tasvir vositalari yuzasidan buyuk yunon faylasufi Aristotel, zamonaviy falsafa vakillari Xose Ortega-i-Gasset, E.Kassirer, Amerika va Yevropa (P.Fry, P.Waugh)², shuningdek, N.A.Veselovskiy, B.M.Tomashevskiy, V.E.Xalizev, A.Kvyatkovskiy, Y.Lotman, L.Ginzburg, N.D.Arutyunova, N.D.Tomarchenko, V.I.Tyupa, N.S.Broytman, O.N.Sisolyatina, M.Charinova, U.E.Aleksandrovna, A.A.Vinokurova³ kabi rus olimlari tomonidan nazariy tadqiqotlar yaratilgan.

Bu borada, o'zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Nazarov, U.To'ychiyev, B.Sarimsoqov, Jamol Kamol, Q.Yo'ldoshev, N.Rahimjonov, Y.Solijonov, N.Jabborov, D.Quronov, A.Sabirdinov, N.Afoqova, U.Hamdamov, B.Karimov, U.Jo'raqulov, Q.Yulchiyev,

² Paul H. Fry. Theory of literature. New Haven and London: Yale. UNIVERSITY PRESS. L. 300-301. Patricia Waugh. Literary Theory and Criticism. New York: Oxford University Press. 2006. L. 328.

³ Арутюнова Н.Д., Журиной М.А. Теория метафоры/под ред. – Москва: Прогресс, 1990; Томарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория литературы. В двух томах. Том первый. – Москва: Academia. 2004; Сысолятина О.Н. Метафора как вербально-невербальная форма//Вербальные и невербальные формы репрезентации знания. Дисс...кандидат филологический наук. – Киров, 2004; Чаринова М.Ш. Художественное своеобразие лирики М.Чаринова. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Махачкала: 2005; Винокурова А.А. Поэтика творчества В.Д. Лебедева. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Якутск, 2011; Александровна У.Е. Метафора и символ в лирической поэзии М.Ю. Лермонтова: когнитивно-семантический и лингвокультурологический аспекты. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Ростов-на-Дону, 2016.

S.Matyakupov, G.Oripova⁴ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida Q.Maqsatov, B.Genjemuratov, Q.Jarimbetov, Q.Orazimbetov, A.Dosimbetova, J.Sagidullayeva, A.Jarimbetov, G.O'tepbergenova, G.Daniyarova⁵ kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda bizning dissertatsiya mavzuumizga qo'yilgan muammo ma'lum darajada o'rganilgan. Ammo, hozirgi qoraqalpoq lirikasida, xususan, J.Izbasqanov, K.Karimov va B.Genjemuratovlar ijodida badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi yuzasidan monografik tadqiqot yaratilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida "Qoraqalpoq adabiyotini o'rganish va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari", "Hozirgi qoraqalpoq adabiyotining dolzarb masalalari" mavzularida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi qoraqalpoq lirikasida troplar: metafora, epitet va o'xshatishlarning badiiy vazifasi, turlari va o'ziga xos xususiyatlarini J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlar ijodida misolida ilmiy-nazariy tahlil qilishdan iborat.

⁴ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Маънавият, 2020; Шарафиддинов О. Замон. Қалб. Поэзия. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O'zbekiston, 2008; Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980; Норматов У. Тафаккур ёдуси. – Тошкент, 2005; Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004; Ғофуров И. Лириканинг юраги. – Тошкент: Ёш гвардия, 1982; Жамол Камол. Шеър санъати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007; Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: O'qituvchi, 2012; Солижонов Ё. Мўъжизалар сеҳри. – Тошкент: Adib, 2013; Солижонов Ё. Адабиёт хиёбони. – Фарғона: Фарғона, 2020; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърлят. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015; Қуронон Д. Адабий ўйлар. – Тошкент: Turon zamin ziyosi, 2016; Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016; Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: Adib, 2012; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2016; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърлий шакллар тараққиёти тамойиллари: Филол.фан.докт... дисс. – Тошкент, 2006; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт аънавалари: Филол. фан. докт (DSc)... дисс. – Тошкент, 2018; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. Юлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеърлятида макон ва вақт категорияси (кичик лирик шеърлар мисолида): Филол. фан. докт (DSc)... дисс. – Фарғона, 2021; Matyakupov S. Hozirgi o'zbek she'riyatida dialog va uning funksiyasi. Filol. fan. doktori... diss. – Toshkent, 2024; Oripova G. Mustaqillik davri o'zbek lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi: Filol. fan. dokt (DSc)... diss. avtoref. – Farg'ona, 2024.

⁵ Мақсетов Қ. Қарақалпақ қаҳарманлық дэстанларының поэтикасы. – Ташкент: Фан, 1965.; Генжемуратов Б. Өжинияз лирикасының поэтикасы. – Некис: Билим, 1997; Жәримбетов Қ. XIX әсир карақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери хәм раўажланыў тарийхы. – Некис, 2004; Оразымбетов Қ. Хәзирги карақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы хәм типологиясы. – Некис, Билим, 2004; Dosimbetova A. Адебиатта көркемлеу қураллари. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2017; Jarimbetov Q., Sagiydullaeva J. Адебиаттану теориясы. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020; Jarimbetov A.Q. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida troplarning qo'llanilish xususiyatlari. (epitetlar, o'xshatishlar, mubolag'alar, jonlantirishlar). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2023; O'tepbergenova G.O. I.Yusupov lirikasinda troplarning kerkemlik xizmeti. Filologiya ilimlari boyinsha filosoifiya doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nókis, 2024; Daniyarova G.P. I.Yusupov poeziyasinda simvol ham metaforaning poetikalik analizi. Filologiya ilimlari boyinsha filosoifiya doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nókis, 2025.

Tadqiqotning vazifalari:

hozirgi qoraqalpoq lirikasida metafora turlarining lirik qahramon ichki kechinmasi, ruhiyati, mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalashdagi badiiy funksiyasini asoslash;

J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlar ijodiga mansub she'riy asarlar strukturasi shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlashda yaxlit kontekstli metaforalar mohiyatini ochib berish;

qoraqalpoq lirikasida yor obrazi tasviri evolyutsiyasida epitetlarning badiiy vazifasi va ahamiyati, obraz mohiyatini ifodalashda suvratdan siyrat tomon o'tish jarayonida ijodkor badiiy mahoratini dalillash;

J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlar badiiy tafakkurida borliq va mavjud voqelikka munosabatda olov, yer, suv, havo kabi tiriklik manbalariga nisbatan qo'llanilgan epitetlar mohiyatini aniqlash;

zamonaviy qoraqalpoq lirikasida jonli, jonsiz, aniq va mavhum narsa va tushunchalararo mutanosiblikka asoslangan metaforik o'xshatishlar o'ziga xosligi, badiiylik-estetik ahamiyatini yoritib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida J.Izbasqanovning "Jaz ótkende" ("Yoz o'tganda") 1979, "Lirika dápterinen" ("Lirika daftaridan") 1982, "Aq quslar" ("Oq qushlar") 2014; K.Karimovning "Araliqlar" ("Oraliqlar") 1981, "Waqt minarasi" ("Vaqt minorasi") 1983, "Meniń terezelerim" ("Mening derazalarim") 1985, "Araldan keldim" ("Oroidan keldim") 1991, "Kóńilim mülki" ("Ko'ngil mulki") 2005, "Qaraqalpaq elim meniń" ("Qoraqalpoq elim mening") 2020; B.Genjemuratovning "Aptaptiń ómiri" ("Oftobning umri") 1987, "Saylandı shıǵarmalar" ("Tanlangan asarlar") 2012 she'riy to'plamlari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti hozirgi qoraqalpoq lirikasida metafora, epitet va o'xshatishlarning badiiy vazifasi, turlari, shuningdek, yasalish usullari va poetik obrazni yangilashdagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada strukturaviy, qiyosiy, qiyosiy-tipologik tahlil va badiiy-estetik metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq lirikasida metaforik tafakkurga oid nazariy talqinlarga yangicha munosabatlar bildirilgan holda uning ijodkor ruhiyatiga muvofiq tashkil etilishi hamda badiiy-estetik ahamiyati yoritilgan;

zamonaviy qoraqalpoq she'riyatida lirik qahramon va mavjud voqelikning o'zaro munosabatini ifodalovchi metaforalar, aksariyat kun va tun (qisqa); yil fasllari (o'rta) yil, asr (uzoq) kabi vaqt kategoriyasi birliklari asosida yaratilganligi J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratov she'riyatida mushtarak xususiyatlardan biri ekanligi aniqlangan;

butun she'riy matn mazmunini yaxlit kontekstli metaforalar asosiga qurish J.Izbasqanov va B.Genjemuratov ijodida mohirona aks ettirilgan holda ma'no va tuyg'uni ifodalashga xizmat qilganligi aniq misollar tahlili asosida isbotlangan;

lirik asarlarda epitet uslubiy shakli J.Izbasqanov (shirin tashvish), K.Karimov (rohatli g'am), B.Genjemuratovlar (ko'milgan ruh) kabi okimoron asosiga qurilishi

shoir va lirik qahramon ruhiy holati bilan bog‘liq hodisa ekanligi nazariy va badiiy tahlillar bilan asoslangan;

hozirgi qoraqalpoq lirikasida antropomorfik usulda metaforik o‘xshatishlar yaratishda J.Izbasqanov, asosan, tabiat hodisalaridan, K.Karimov tabiat hodisalari bilan birga real jonsiz obyektlar, B.Genjemuratov esa tabiat hodisalari va mavhum tushunchalarga tayangan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq adabiyotshunosligida troplarning badiiy-estetik takomili shoir ijodiy uslubi va individualligi bilan bog‘liq qo‘llanilgan tasviriy vositalarda namoyon bo‘lishi yuzasidan aniq tahliliy materiallarda berilgan;

J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlar she‘riyatida folklor, mumtoz adabiyot hamda jahon adabiy an‘analarini davom ettirish bilan birga individual yondashuvlar orqali badiiy troplar yaratishda ham o‘z mahoratlarini namoyon etganligi ilmiy asoslangan;

har uchala shoir lirikasida yaratilgan murakkab troplar: metaforik epitet va metaforik o‘xshatishlar va ularning ijtimoiy-psixologik asoslari aniq misol va tahlillar orqali dalillangan;

metaforalar qo‘llanilishida ijodkor maqsadi, lirik qahramon kechinmalari, vaqt kategoriyasi va tabiat hodisalari bilan uyg‘unlikda she‘riy matn mazmunini ifodalashga xizmat qilganligi nazariy isbotlangan;

hozirgi qoraqalpoq lirikasida trop va uning badiiy-estetik ahamiyati yuzasidan muayan shoirlar ijodi misolida ijodkor badiiy mahorati, individual xususiyatlari, lirik qahramon yaratish tamoyillari yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo‘llanilgan usullar, tadqiqot aspektlari va badiiy yondashuvlar, foydalanilgan adabiy-nazariy asarlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, nazariy xulosalarning struktur tahlil, qiyosiy, badiiy-estetik tahlil metodlariga asoslanganligi, nazariy fikr va tavsiyalarning amaliyotda keng qo‘llanilganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy tasvir vositalari: metafora, epitet, o‘xshatishlar bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarni shakllantirish va rivojlantirishda, kelajakda lirik qahramon kechinmalari, trop va badiiy mazmun mohiyati, metaforik obraz, zamon va makon, lirik subyekt va obyekt munosabati, ijodkor shakliy-uslubiy izlanishlarini aniqlash va baholashda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy qoraqalpoq she‘riyatini milliy-adabiy an‘ana, qardosh va jahon xalqlari lirikasi bilan uyg‘unlikda, o‘rganishda, oliy ta‘lim muassasalarida she‘riyat sirlari bo‘yicha ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar, maxsus kurs va seminarlar olib o‘tishda, darslik, o‘quv qo‘llanmalar hamda majmualar tuzishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining qo'llanilishi. Hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy tasvir vositalar poetikasini J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratov ijodi misolida o'rganish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

lirik qahramon kechinmalari ifodasi, muallif g'oyasi va maqsadini tasvirlash, she'r tuzilishi, ramziy obrazlar, lirik obyekt va subyekt munosabati, real va mavhum, jonli va jonsiz obyektlar o'rtasidagi mantiqiy o'xshashliklar, shoirlar ijodiga xos shakliy-uslubiy izlanishlari, individual uslub bilan bog'liq ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 23-sentyabrdagi 423/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy tasvir vositalari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar takomillashtirilgan;

hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy troplarning muayyan shoir ijodiga xos individual xususiyatlari, so'nggi yillar lirikada badiiy vositalarning an'anaviy normadan individual xarakterga o'tishi, induktiv masalalar va his-tuyg'ularni aks ettirishga oid metafora, epitet, o'xshatishlarning obyektlarga nisbatan o'xshatilish, J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratov kabi shoirlarga xos troplarni o'rganish yuzasidan kelingan xulosalardan "Adabiy jurnal", "Assalomu alaykum Qoraqalpog'iston", "Yodnoma" ko'rsatuvlarini tayyorlashda keng foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-martdagi 05.22/135-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvlarda berilgan ilmiy xulosalar tomoshabinlarning badiiy tasvir vositalari yuzasidan bilimlari oshishiga erishilgan;

hozirgi qoraqalpoq lirikasiga xos uslub, poetik izlanishlar masalalar, badiiy tasvir vositalari va she'r strukturasi, trop turlari, metaforalarning estetik ahamiyati bo'yicha bayon etilgan ilmiy xulosalardan Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasining yosh ijodkorlarga bag'ishlangan seminarlar va mahorat darslarini o'tkazishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 17-iyundagi 55-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlarning badiiy tasvir vositalari, obraz yaratish usullari bo'yicha tushunchalari shakllantirilgan;

qoraqalpoq lirikasida badiiy tasvir vositalari folklor namunalari bilan bog'liqligi, yor obrazi yaratilishi badiiy takomili haqidagi ilmiy natijalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyida Ajiniyaz, Qazi Mawlik, J.Izbasqanov, K.Karimov va B.Genjemuratovlar ijodi bo'yicha o'tkazilgan ekskursiya darslarida foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2025-yil 13-yanvardagi 01-02/03-11-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot takliflari orqali milliy adabiyotimizda badiiy tasvir vositalari, ishqiy lirikada yor obrazi yuzasidan adabiy jamoatchilikning tushunchalari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro konferensiya, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, obyekt va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hozirgi qoraqalpoq lirikasida metaforaning qo‘llanilish xususiyatlari”** deb nomlanib, unda qoraqalpoq lirikasida qo‘llanilayotgan metaforalar nazariy va badiiy tahlil qilindi. Muammoning qoraqalpoq adabiyotshunosligida o‘rganilishi yuzasidan, A.Jarimbetovning **“Qoraqalpoq xalq dostonlarida troplarning qo‘llanilish xususiyatlari”**, G.O‘tepbegenova **“I.Yusupov lirikasida troplarning badiiy vazifasi”**, G.Daniyarova **“I.Yusupov poeziyasida ramz va metaforaning poetik tahlili”**⁶ kabi monografik tadqiqotlarga dissertatsiyada atroflicha munosabat bildirildi.

Birinchi bobning dastlabki fasli **“Vaqt kategoriyasiga oid qo‘llanilgan metaforalar”** deb nomlanadi. Hozirgi qoraqalpoq lirikasida J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlar ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur shoirlar she‘riyatida qahramon kechinmalarini va uning mavjud voqelik bilan o‘zaro munosabatini ifodalashda qo‘llanilgan vaqt kategoriyasi bilan bog‘liq metaforalar alohida e‘tirofqa molik bo‘lib biz dissertatsiyada ularni qo‘llanilishiga ko‘ra quyidagicha tasnif qildik:

1. Vaqtda birlik kategoriyasi: qisqa vaqt birliklari – kun va tun.
2. Vaqtning mavsumiy kategoriyasi: yil mavsumlari – bahor, yoz, kuz, qish.
3. Vaqtning davriy kategoriyasi: uzoq vaqt birliklari – yil, asr.

⁶ Jarimbetov A.Q. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida troplarning qo‘llanilish xususiyatlari. (epitetlar, o‘xshatishlar, mubolag‘alar, jonlantirishlar). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2023; Otepbegenova G.O. I.Yusupov lirikasida troplarning kirkemlik xizmeti. Filologiya ilimlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nókis, 2024; Daniyarova G.P. I.Yusupov poeziyasida simvol ham metaforaning poetikalik analizi. Filologiya ilimlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nókis, 2025.

Mazkur tasnifdagi holatlar har uchala shoir ijodida eng samarali va ta'sirchan ifodalangan bo'lib, ularda mualliflar o'z g'oyasi badiiy talqin qiladi. Adabiyotshunos olim G.Zinatdinova o'z monografik tadqiqotida vaqtning kunlik va mavsumiy xronotoplarini aniq shoirlar lirikasi misolida asoslagan edi.⁷ Buz ushbu faslda, avvalo, yil fasllariga xos yaratilgan metaforalarga e'tibor qardik. Ma'lumki, bahor tabiiy jonlanish hodisalari orqali shoir qalbida yangi tuyg'ularni paydo qilish bilan bir qatorda azaliy istiroblarni yangilashga ham sabab bo'ladi. Deyarli barcha shoirlarning muhabbat mavzusidagi she'rlarida bahor obrazi ishtirok etadi.

1. Jipek samal terbep, tallar oyandi,
Posalar lablerde ot bolip jandi⁸.
2. Jáne jawın jawdı... Júregim – báhár,
qálbimdi sótedi gúldirmaması⁹.
3. Dala bolsań tóbeńnen jawar edim,
Aprel jańbırı bolıp.
Báhárdegi tańlardıń bir tamshısı bol,
Kónildegi tarlardıń ilhamshısı bol¹⁰.

Ko'rinadiki, ushbu misollarda bahor faslida ishq-muhabbatdan qolgan eski dardlarini esga olayotgan lirik qahramon ko'z oldimizda gavdalanadi. Eski xotiralarni esga olishiga sabab bo'lgan bahor – metafora orqali yanada ta'sirli aks etgan. Dastlabki misolda bahor faslida lirik qahramonning ko'nglida uyg'onish yuz berishi bilan ipakdek shamol tebratgan *tollarning uyg'onishi*, diydorlashuv jarayonida *o't bo'lib yongan bo'salar* kabi metaforalar o'zining betakror ifodasini topgan. Ikkinchi misolda bahor yomg'iri yuragiga titroq solib, dardli xotirasini esiga tushirgan lirik qahramon aks etgan. Yuragi bahor yomg'iri bo'lib qayta yuvilayotgan, shu yuvilishlar orasida eski dardi ham, quvonchi ham aralashib ketgan lirik qahramon bahor yomg'iri detali orqali yanada ta'sirli aks ettirilgan, *qalbini tilgan momaqaldiraq* metaforasi esa ayiriliq va hasratdan tug'ilgan dard. Oshir va olim B.Genjemuratov ta'kidlaydiki, "Lirikada hissiyot va tuyg'ular yetakchilik qilgani uchun, lirik qahramon qalbidagi istirobni anglash talab etiladi, ya'ni she'r matnida yashiringan badiiy mazmunni uqish zarur. Bu sirli mazmun lirik qahramonning lirik obyektga simpatiyasi yoki antipatiyasi, unga bo'lgan munosabati, murojaatlarida yashirilib yotadi"¹¹.

Vaqt kategoriyasi bilan bog'liq metaforalardan eng ko'p qo'llanadigan *tun* o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu, eng avvalo, tunga xos xususiyatlari, uning falsafiy-psixologik asosi va imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Tun ba'zi insonlar uchun qo'rquv va yolg'izlik kabi salbiy tuyg'ularni paydo etsa, ijodkor inson uchun tuyg'ularning ochilish jarayoni sifatida ko'rinadi. Bu haqda adabiyotshunos A.Esin

⁷ Zinatdinova Z. Házirgi qaraqalpaq lirikasında xronotop poetikasi (I.Yusupov, Sh.Seytov, S.Ibragimov, B.Genjemuratov shıǵarmaları misalında). – Nókis, 2024. – B. 57-69.

⁸ Каримов К. Аралдан келдим. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1991. – Б. 55.

⁹ Генжемуратов Б. Сайланды шыǵармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 70.

¹⁰ Избасқанов Ж. Ақ қуслар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2014. – Б. 26-27.

¹¹ Генжемуратов Б. Моностихте лирикалық объект хэм оның лирикалық қахарман образын жасаўдағы көркемлик функциясы // «Хэзирги филология илимлериниң әхмийетли мәселелери» атамасындағы республикалық илимий-теориялық конференция мақалаларының топламы. – Нөкис, 2013. – Б. 72-74.

rus klassik lirikasi vakillari ijodini tahlil qilib: “Bu davr adabiyoti uchun o‘ziga xos tendensiya – sutka vaqtning emotsional-psixologik ma’nosini ma’lum bir personajga yoki lirik qahramonga bog‘liq holda individuallashtirish ko‘proq xosdir. Shuning uchun tun chuqur o‘yga botish, bezovtalanish, qayg‘urish vaqtiga aylanishi mumkin”¹² – degan edi. Darhaqiqat, tun kunduzgi barcha manzarani xiralashtirib, mavjud tashvishlarni unutadigan, insonning his-tuyg‘ular va kechinmalarga berilish vaqti sifatida aks etadi.

Arqada – ayaq joq... Túslikte – bas joq.

Tún girdabi jutar juldızımızdı.

Milliard era joyttıq kúndızımızdı.

Ayım, joğaltpayıq bir-birimızdı¹³.

Ushbu satrlardagi tun girdobi biz ko‘rib o‘rgangan real tun, zulmat emas, u lirik “men” dardlari, tashvishlari yoki sinovlaridir. She‘rdagi yulduz metaforasi lirik qahramonning yolg‘iz umidi, qorong‘ulikda yarqirab kuch berib turgan ishonchi, lekin shu umidni ham tun quchog‘iga yutib ketgan. Bandning keyingi qatorlaridagi eralar, kunduzlar ham tun obrazi mohiyatini ochishga qaratilgan.

Tun lirikada shoir tuyg‘ulariga kunduzga nisbatan ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Tungi sukunat, qorong‘ulik, qo‘rquv va boshqa omillar she‘r yaralishiga kuchli ta’sir etadi. Ijodkorga ta’sir qilib, asar yozishga undovchi bunday omillar juda ko‘p. Ular adabiyotshunoslikda turtki (povod – A.T) deb ataladi. Bu haqida Q.Orazimbetov: “Har bir badiiy asarni, ayniqsa, lirik asarni paydo qilish uchun his-tuyg‘uga ta’sir etuvchi narsaning (povod) alohida xizmatini yashira olmaymiz. Chunki, uni bilish bilan biz asarning nima haqida yozilganini emas, balki nima uchun yozilganligini bilib olamiz”¹⁴. Tun obrazi J.Izbasqanov, K.Karimov va B.Genjemuratovlar lirikasida ayni shu vazifani bajaradi.

Bobning “**Tabiat hodisalari bilan bog‘liq metaforalar**” deb nomlangan ikkinchi faslida ijodkorlarning tabiat hodisalarini obrazli ifodalashdagi mahorati tahlil qilindi. Inson his-tuyg‘ulariga, qarashlariga ta’sir etib, uni estetik, ruhiy jihatdan oziqlantiradigan, o‘y-xayollariga turtki beradigan asosiy omillardan biri bu – tabiat. Lirik asarlarda alohida tasvir obyektini qilib olinadigan tabiat manzaralari yangi metaforalar yaratilishiga sabab bo‘ladi. Lirik asarda peyzajdan badiiy maqsadni ifodalashda foydalanishning bir necha usul va turlari bor. Bu haqda adabiyotshunos G.Tlewniyazova “Hozirgi qoraqalpoq lirikasida kompozitsion izlanishlar” deb nomlangan tadqiqotida lirikada peyzaj bajaradigan kompozitsion vazifalar tadqiq qilarkan, shunday xulosaga keladi: “*Birinchidan*, peyzajni tasvirlash orqali lirik qahramonning ichki ruhiyati unga qarama-qarshi qo‘yiladi; *ikkinchidan*, peyzaj tasviri lirik qahramonning ichki kechinmalarini, to‘lg‘anishlarini yetkazib berishda ko‘prik vazifasini bajaradi. Lirik qahramon qalbidagi tuyg‘ular tabiat hodisalariga qiyoslanib yoki ko‘chirib tasvirlanadi; *uchinchidan*, lirik asarlar kompozitsiyasida fikrni yetkazishda asarning mazmuniy qurilishiga qorishib ketgan peyzaj tasviri elementlari ham uchraydi. Fikrni bunday

¹² Есин Б.А. Принципы и премы. Анализа литеатурноного произведения. Учебное пособие. – Москва: Флинта. Наука. – С. 66.

¹³ Генжемуратов Б. Сайланды шығармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 69.

¹⁴ Оразымбетов Қ. Таңламалы шығармалар топламы. Еки томлық. I том. – Нөкис: Билим. 2018. – Б. 35.

usulda yetkazsh – shoirning badiiy izlanishlari natijasi deb qarashimiz o‘rinli bo‘ladi. Bunda peyzaj metaforik yoki ramziy ma’no yuklamasini oladi; *to‘rtinchidan*, peyzaj shoirning o‘ziga xos falsafiy pozitsiyasini yetkazish uchun qo‘llaniladi¹⁵.

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan shoirlar she‘rlarida ham yuqorida keltirilgan fikrlarning amaliy tasdig‘ini kuzatish mumkin. Zero, ularda peyzaj – intim lirikasida daraxtlar, ayniqsa, tol obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Daraxtlar metaforaning jonlantirish usuli orqali obrazli tasvirlanadi¹⁶. Bu borada, J.Izbasqanovning “G‘uz kórinisi”, “G‘uz elegiyasi”, “Tallar, tallar”, “Sárwi tal”; K.Karimovning “Jaz elegiyasi”, “Dúrmen bađi”, “Jasil reñler”, “G‘uzgi bađ”; B.Genjemuratovning “Tal haqqında romans”, “Bayađı bađlardıń gúlleri ózge”, “Lábińdi sađıntar dámi júzimniń”, “Jarılıs” kabi she‘rlari dissertatsiyada keng tahlil qilindi.

1. Íńıldaydı jalañash tal,
Samallarğa aldangan¹⁷.

2. Íshqımızğa gúwa tallardı
Bunsha nege tonağan, aytıń?¹⁸.

Birinchi misoldagi yalang‘och tol yolg‘izlikdagi lirik qahramon his-tuyg‘ulari, ishonchi yoki umidini yo‘qotgan insonni ifodalasa, ikkinchisi muhabbat tarixini esga olib ezilgan insonning qalbiga qadrdosh bo‘lgan tollarga achinishi tasvirlangan. J.Izbasqanov lirikasida tabiat hodisalari, ayniqsa, bahor tasviriga alohida e‘tibor berilishi haqida professor Q.Orazimbetov shunday fikrlarni bildirgan edi: “Tabiat hodisalari bilan san‘at o‘rtasidagi yaqinlikni sezish va uni birgalikda kuylash chindan ham alohida hodisa, o‘zgacha ijod. Shoir ijodida kuzatiladigan yana bir o‘ziga xoslik – u bahor va kuz fasllaridir... U tabiat qo‘ynidagi inson portretini shunday aniqlik bilan chizadiki, u sening estetik tuyg‘ularingni qitiqlaydi”¹⁹. Kuzatiladiki, hozirgi qoraqalpoq lirikasida tabiat hodisalari shoirlarga nafis metaforalar yaratishga, lirik qahramon kechinmalarini badiiy talqin qilishga va she‘r kompozitsiyasini qurishga yordam beradi.

Boning uchinchi fasli **“Yaxlit kontekstli metaforalar”** deb nomlanib, unda butun bir she‘rning metaforik usulda ifodalanishi asoslab berildi. Tadqiqot obyekti sanalgan shoirlar ijodida metaforaning obrazlar, so‘z va so‘z birikmalari, she‘r sarlavhasi, hatto butun mazmunga nisbatan qo‘llangani guvohi bo‘ldik. Demak, adabiyotshunos S.Ahmedov ta’kidlaganidek, “Metafora she‘rning barcha satrlarini qamrab olishi mumkin”²⁰ ekan. Bu borada, J.Izbasqanovning “Men – báhármen”, “Men – bir meteorit”; K.Karimovning “Metamorfozalar”, “Daraqqlar tik turıp óledi”, “Ótken ásir”; B.Genjemuratovning “Nókis juwınıp atır”, “Tal haqqında romans”, “Sóz shaqaplarına” kabi she‘rlari fikrlash uchun kerg materiallar beradi.

¹⁵ Тлеуниязова Г. Хэзирги карақалпақ лирикасында композициялық изленислер. – Ташкент: LESSON PRESS, 2022. – Б. 45-47.

¹⁶ Литературная энциклопедия. Терминов и понятий. – Москва: Интелвак, 2001. – С. 692.

¹⁷ Генжемуратов Б. Сайланды шығармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 98.

¹⁸ Избасқанов Ж. Ақ куслар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2014. – Б. 12.

¹⁹ Оразимбетов Қ.К. Kewil mülki talqini. – Nökis: Jeti ıqlım, 2025. – В. 16.

²⁰ Ахмедов С., Султанов Қ. Әдебияттануы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1987. – Б. 156.

Xususan, B.Genjemuratovning “Nókis juwıńp atır” she’ri sarlavhasining o‘ziyoq metaforaga asoslangan.

Ruwxımdı shomıldırıp atır bul Báhár –
ruwxım qaytadan tuwılıp atır:
nurlı selde jawrap qayta oyangan
Nókis juwıńp atır...²¹.

She’rda lirik qahramon ruhiy holati bilan tabiiy yomg‘ir yog‘ish hodisasi uyg‘unlikda parallel tasvirlangan. She’rda lirik syujet, bahor yomg‘iri va uning butun shaharini yomg‘irda cho‘miltirishi – metaforik kontekstni tashkil etgan. She’rdagi ramz – yomg‘ir, bahor yomg‘iri. Suvning yuvish, iflosliklarni tozalash xususiyatidan kelib chiqib, shoir uni inson ruhini, ichidagi dard qoldiqlarini tozalovchi sifatida aks ettirgan. Zero, “Ramz hatto bir so‘z yordamida ham keng ma’noni yetkazib berish qobiliyatiga ega bo‘lib, lirik troplar orasida boshqalaridan sezilarli darajada ajralib turadi”²². Bunda lirik qahramon ruhining tabiat hodisasiga ko‘chishi emas, balki, yomg‘irning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib, inson ruhining poklanishini tasvirlash orqali obrazli metafora vujudga kelgan. Mazkur bobda qo‘yilgan masalalar adabiyotshunoslik mezonlari asosida dissertatsiyada batafsil tahlil qilindi.

“Hozirgi qoraqalpoq lirikasida epitetlarning uslubiy vazifasi” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi faslida **“Yor obraziga oid epitetlar”** tahlilga tortildi. Ma’lumki, adabiy epitet ko‘proq obraz va uning mazmunga xos yaratiladi. Epitetlar muallif mahoratiga bog‘liq ravishda har xil ma’noda, bir necha troplar bilan qo‘shilib yoki bir so‘z tarkibida kelishi mumkin. Shu ma’noda metaforik, giperbolik, o‘xshatish epitetlari muallif badiiy tafakkuri mahsuli sanaladi. Masalan, qirmizi yanoq, qora nor kabi birikmalar oddiy epitetni hosil qilgan holda ular predmetni sifatlaydi. Oltin dala, kumush suv kabi birikmalar esa metaforik ahamiyat kasb etadi. Oltinning kuz fasli rangiga bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Adabiyotshunos olim B.Tomashevskiy ta’kidlaydiki, “Epitet – bu poetik ta’rifga asoslangan terminologik birlik bo‘lib, uni mantiqiy ta’rifdan (lisoniy aniqlovchi – A.T) ajratish lozim. Mantiqiy ta’rifning asosiy vazifasi predmetni farqlovchi belgilariga e’tibor qaratishdir”²³. Shuning uchun ham epitet tilshunoslik va adabiyotshunoslikda teng o‘rganiladi. Professor D.Quronov ta’biri bilan aytganda, “Lisoniy nuqtayi nazardan epitet doimo aniqlovchi vazifasida keladi, lekin oddiy aniqlovchidan farqli badiiy vazifani bajaradi: agar oddiy aniqlovchi narsa-hodisani bir turdagi boshqa predmetlardan ajratsa (yolg‘iz ayol), epitet unga xos alohida belgini ajratib (dashtdagi yolg‘iz ayol) ko‘rsatadi”²⁴. Shu ma’noda, adabiyotdagi epitetlarni, ayniqsa, individual ijodkorlar asarlari misolida o‘rganishda uning

²¹ Genjemuratov B. Сайланды шығармалар. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 19.

²² Турдимов Ш. Г. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. автореферат, – Ташкент, 1987. – С. 8.

²³ Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – Москва: Аспект пресс. 1999. – С. 37. Введение в литературоведение. Литературное произведение: основные понятия и термины. – Москва: Высшая школа. 1999. – С. 441.

²⁴ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғоти. – Тошкент: Академнашр. 2013. – В. 369.

aniqlovchilik xususiyatiga emas, obrazlilik, ya'ni mazmun bilan aloqasiga katta e'tibor qaratish lozim.

Qoraqalpoq lirikasi yor obrazini aks ettirishda uning tashqi qiyofasi, ichki kechinmalari bilan birga, lirik obyekt (yor) va lirik subyekt o'rtasidagi munosabatni tasvirlashga qaratilgan epitetlar I.Yusupovning 60-yillar she'riyatida yangicha tus olgan edi. 1980-yillarda adabiyotga kirib kelgan J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratov kabi shoirlar ijodida mazkur an'ana samarali davom ettirildi. Epitetlar mazkur shoirlar ijodida "Lirik qahramonning qalb tuyg'ulari insonga xos tabiiy (jinsiy) ishq negizida paydo bo'ladi va ular tashqi dunyoviy ta'sirlar natijasida axloqiy xususiyatlarni, ya'ni ijtimoiy tartiblar, urf-odatlar, insoniy mezonlar ta'siri natijasida, shuningdek, dunyoni badiiy jihatdan idrok etish natijasida estetik xususiyatlarni egallaydi"²⁵.

Har qanday shoir lirikasida dastlabki qadamlar muhabbat haqidagi she'rlaridan boshlanishi tabiiy hol. Shu ma'noda, J.Izbasqanov, K.Karimov, B.Genjemuratovlarning muhabbat lirikasida yor obrazi alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Sen alip ketkeli kónil giltimdi,
Mağan tınım bermes qıynap qapalıq.
Kópten esitpedim albaw kúlkińdi?!
Al, gúz gorizontqa barar taqalıp²⁶.
2. Názik barmaqların iyirgen sabaq,
pútkil ómirimdi múmkin sharpıwı.
Dumanlı, duwayı kózleriń hár waq,
muz hám tas sıyaqlı táğdirimniń "jawı"...²⁷.

Dastlabki misoldagi "albaw kúlki" so'z birikmasidagi "albaw" so'zi faqat qizning kulgisini emas, lirik qahramonning ko'ngil xotirjamligi, osoyishtaligini anglatadi. Albaw so'zi – xotirjam, tashvishsiz²⁸ degan ma'noni beradi. Qizning samimiy kulgisi yigitga nafis tuyg'ular in'om etadi. Ikkinchi she'rdagi epitetlar falsafiy tushunchalar, o'tkir mantiq mahsuli. Birinchi misoldan farqli o'laroq "duwayı kózler" keng tushunchalarni ifoda etadi. "Duwayı kózler" – duolash ma'nosida, lirik qahramon qalbini madh etib, o'ziga asir qilgan obraz sifatida namoyon bo'lsa, tumanli so'zi tushunarsiz, xira holatni ifodalaydi. Tumanli ko'zlar ham quvonch, ham qo'rquv paydo etgan holda lirik "men"ga bir vaqtning o'zida ham baxt, ham xavf-xatar soladi.

Ya Alla... keshirgil bizdey qulıńdı...
Gúnağa baslaydı bul iyesiz Bağ,
qálbimde, sanamda, dáli táğdirimde,
kestelenip lawlar bir altın sabaq...²⁹.

²⁵ Жәрімбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери хәм раўажланыў тарийхы. Монография. – Нөкис. – Б. 104.

²⁶ Избасқанов Ж. Ақ қуслар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2014. – Б. 26-27.

²⁷ Генжемуратов Б. Сайланды шығармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 134.

²⁸ Қарақалпақ тилинің түсиндирме сөзлиги. VII томлық. I том. – Нөкис: Қарақалпақстан. – Б. 94.

²⁹ Генжемуратов Б. Сайланды шығармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 134.

So‘nggi satrdagi “*bir altın sabaq*” dastlabki misrani yanada oydinlashtiradi. Lirik qahramonni o‘ziga band etib turgan iplar oxir-oqibat oltin ipga, qadrli insonga aylanadi. Tumanli ko‘zlar qo‘rqitgani bilan so‘ngida iplar (tuyg‘ular, ishq) lirik subyektning yuragini zabt etadi.

Tek te eki nárse qaldı álemde:

Otlı lábleriń,

Jipek burımlarıń...³⁰.

Ushbu parchadagi “*otli lábler, jipek burımlar*” ko‘z o‘nggimizda sadoqatli yor obrazini gavdalandiradi. Birinchi misolda yor kulgusi, uning nozik, xushchaqchaq ko‘rinishi orqali esga olinsa, ikkinchi misolda sirli nigohi, uchinchi misolda esa betakror go‘zalligi bilan e‘tiborimizni tortadi.

Bobning “**Antropomorfik usulda yaratilgan metaforik epitetlar**” deb nomlangan ikkinchi faslida lirik asarlarda epitet va uning lirik qahramon ruhiyati, obraz yaratish, she‘r tarkibida predmet, obyekt badiiy tropga xos bir qancha xususiyatlar bilan izohlanishi nazariy va badiiy tahlil qilindi. Rus nazariyachilari ta‘kidlaydiki, “Epitet faqatgina obyektни aniq ko‘rsatib, biror xususiyatini ta‘kidlabgina qolmay, balki, unga obyekt yoki hodisadan tashqari (ko‘chma ma‘noda), yangi, qo‘shimcha sifatlarni ham yuklay oladiki, bu – metaforik epitetlar deb yuritiladi”³¹. Ko‘rinadiki, metaforik epitetlar o‘ziga aloqador bo‘lgan predmet ma‘nosini hamda she‘r mazmunini kuchaytiradi. O‘zbek adabiyotshunosi E.Qudayberganov ham: “Badiiy asarlarda ko‘pincha “oltin dala”, “o‘t yurak”, “temir intizom”, “po‘lat bardosh” kabi so‘z birikmalari uchraydi. Bunday hollarda butun birikma emas, balki faqat aniqlovchining (epitet) o‘zi metaforik xususiyatga ega bo‘ladi. Ham aniqlovchi, ham metafora vazifasini bajaruvchi bunday aniqlovchilar metaforik epitet deb ataladi”³² – deya ta‘kidlaydi. Qoraqalpoq olimasi A.Dosimbetova o‘zining badiiy tasvir vositalari tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotida metaforik epitetlar yuzasidan shunday xulosaga keladi: “Metaforadan farqli o‘laroq, metaforik epitetda qiyoslovchi element bo‘ladi. Masalan, kontekstda “tish” so‘zini “marjon” so‘zi bilan almashtirish mumkin, unda biz metaforaga ega bo‘lamiz. Bu yerda “tish” so‘zi ishtirok etmaydi va badiiy effekt hosil qilinadi. Ammo, “marjon tishlar” deb ham aytilish mumkin. Bunda to‘g‘ri ma‘nodagi “tish” so‘zi qo‘llanilgan va uning belgilari (oq ekanligi) obrazli ifodalagan”³³. Shunday ekan, metaforik epitetlar o‘zi sifat berilgan so‘z bilan metaforik ma‘no anglatadi. Bunga epitetning obyektga nisbatan ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishi asos bo‘ladi.

1. Jerlengen ruwxımdı aspanlatıwǵa –
(nurgá shomılıwı ushın shar tárep)³⁴.

2. Seller juwǵan dala, qır túsin,
Úlbiregen maydıń túr-túsin³⁵.

³⁰ Каримов К. Мениң терезелерим. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985. – Б. 51.

³¹ Словарь литературоведческих терминов. – Москва: Просвещение, 1974. – С. 470.

³² Худойберганов Е. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007. – Б. 111.

³³ Dosimbetova A. Adabiyatta kórkemlew quralları. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2017. – B. 27-28.

³⁴ Генжемуратов Б. Сайланды шығармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 140.

³⁵ Избасқанов Ж. Ақ қуслар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2014. – Б. 7.

An'anaviy epitetdan farqli o'laroq, metaforik epitetlar so'zga obrazlilik baxsh etadi, o'ziga aloqador bo'lgan so'zga ham ko'chma ma'no yuklaydi. **Birinchi she'r**da "jirlengen ruw" so'z birikmasi ko'chma ma'no hosil qilgan. Bunda ish-harakatning asosi ruh, "jirlengen" esa ruhga aniqlik beri metaforik sifat paydo qilgan. Dafn qilish, ko'mish bu – real holat, ruh esa mavhum tushuncha. Real va abstrakt tushunchalarning bunday mantiqiy zanjiri badiiy metaforik epitetni hosil qilgan. **Ikkinchi she'r**da "úlbiregen may" haqiqiy badiiy metaforik epitet. May – bahor faslining uchinchi oyi. Shoir may oyida tabiat hodisalarida yuz beradigan hodisalar, jonli manzaralar, ish-harakat va predmetlarning tabiiy holatidan kelib chiqib uni charchagan, holdan toyganga o'xshatadi.

Lirik asarlarda metaforik epitetlar, asosan, antropomorf tipda qo'llanilib obyektga ko'chma ma'no beradi, uni metaforik sifatlar bilan aniqlab keladi. Antropomorfik tasvir muallifga badiiy fikr, g'oyani yetkazishda va lirik qahramon psixologiyasini aks ettirish usuli. Lirik asarlarda metaforik epitetlar, asosan, antropomorf usulda yasilib, obyektga ko'chma ma'no metaforik sifatlar beradi. Antropomorfizm (yunon. antropos – odam, morpy – ko'rinish, obraz, shakl) – dunyo hodisalarini odamning xususiyatlariga bog'lab tushuntirish³⁶. Bu usul jahon adabiyotida metaforik epitet yaratishning asosi sifatida qaraladi. Adabiyotshunos olim: S.A.Gubanov, ijodkor M.Svetayeva ijodiga mansub epitetlarni tahlil qilarkan: "Ko'rib chiqqanimizdek, M.Svetayevaning asosiy ijodiy konsepsiyalari, epifrastik ifodalar (tasvirlar) doirasida tasvirlangan antropomorf tipdagi metaforik epitetni tuzishning bir xil mantig'ini ko'rsatdi (dovyurak inson - dovyurak qon)"³⁷ – deya ta'kidlaydi.

1. Sıyqı ketken jansız túnlerdiń
Muńlı qosıǵı ol qoyǵan tawısıp³⁸.
2. Mángige kúndeslik otında jangán
jasasın Sezimler –
hámiledar...³⁹.

Ahamiyat bersak, antropomorfik tasvirlash usuli shoirga troplar imkoniyatidan keng foydalanishga, tasvir obyektini va predmetini ko'paytirishga yordam beradi. Hozirgi qoraqalpoq lirikasida mazkur usulni J.Izbasqanov ko'proq intim va peyzaj lirikalari bilan tasvirlasa, K.Karimov va B.Genjemuratov falsafiy-peyzajda aks ettiradi. B.Genjemuratov she'rlari metaforik epitetlarning kuchli mantiqqa qurilishi, yangi so'z birikmalari hosil qilish mahorati bilan ajralib turadi. Dissertatsiyada mazkur shoirlar qalamiga mansub "nazlı tańlar" "jansız túnler", "erke samallar" (J.Izbasqanov); "er jetken poeziya", "qáhárli úndew" "júkli bolmas arnawlar", "bala tuwmas táriypler", "hámiledar sezimler" (B.Genjemuratov); "buyra baslı tolqınlar", "ójet ruwx" (K.Karimov) kabi antropomorfik usulda

³⁶ Berdimuratova A., Baymurzaev A., Mambetkarimov R., Biyimbetov J. Filosofiyalıq sózlik. – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2023. – B. 17.

³⁷ Губанов С.А. Эпитет в творчестве М.И. Цветаевой: семантический и структурный аспекты. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Самара, 2009. – С. 22.

³⁸ Избасқанов Ж. Жаз өткенде. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. – Б. 6.

³⁹ Генжемуратов Б. Сайланды шығармалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б. 92.

yaratilgan metaforik epitetlar va ularning ijtimoiy-psixologik asoslari keng tahlil qilindi

